

"SHARQ TAFAKKURINING TIMSOLI: ABU ALI IBN SINO FALSAFIY MEROSI TAHLILI"

Norsafarova Zuhail Obid qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Milily g'oya ma'naviyat asoslari huquq ta'limi 2-bosqich talabasi

zuhalnorsafarova873@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15826228>

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sharq falsafasining yirik namoyandasi, buyuk mutafakkir va tabib Abu Ali Ibn Sinoning boy ilmiy-ma'naviy merosi chuqur tahlil qilinadi. Uning falsafiy qarashlari nafaqat o'z davri uchun, balki zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ibn Sino asarlarining mantiqiy-tanqidiy tahlili orqali falsafa fanining mohiyati, inson tafakkurining chuqurligi va ma'naviy yetuklik mezonlari yoritiladi. Shuningdek, mutafakkirning bolalikdagi iqtidoridan boshlab, ilmiy faoliyatiga qadar bo'lgan yo'li, yozgan asarlari va ularning bugungi kundagi o'rni ilmiy jihatdan yondashilgan holda bayon etiladi. Maqolada Ibn Sinoning asarlari orqali yosh avlodni ma'naviy kamolot sari yo'naltirish muhimligi alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Abu Ali ibn Sino, Sharq falsafasi, ilmiy meros, falsafiy tafakkur, ma'naviyat, tafakkur tarbiyasi, Kitob ash-Shifo, Al-Qonun fittibb, yoshlar tarbiyasi.

Abstract

This article deeply analyzes the rich scientific and spiritual heritage of Abu Ali Ibn Sina, a major figure in Eastern philosophy, a great thinker and physician. His philosophical views are of great importance not only for his time, but also for modern society. Through a logical-critical analysis of Ibn Sina's works, the essence of the science of philosophy, the depth of human thought, and the criteria for spiritual maturity are illuminated. Also, the path of the thinker from childhood to his scientific activity, his works, and their place today are described in a scientific approach. The article emphasizes the importance of guiding the younger generation towards spiritual maturity through the works of Ibn Sina.

Keywords: Abu Ali Ibn Sina, Eastern philosophy, scientific heritage, philosophical thought, spirituality, thought education, Kitab al-Shifa, Al-Qanun fittibb, youth education.

Аннотация

В данной статье глубоко анализируется богатое научное и духовное наследие Абу Али ибн Сины, крупной фигуры в восточной философии, великого мыслителя и врача. Его философские взгляды имеют большое значение не только для своего времени, но и для современного общества. Посредством логико-критического анализа произведений Ибн Сины освещается сущность науки философии, глубина человеческой мысли и критерии духовной зрелости. Также в научном подходе описывается путь мыслителя от детства к его научной деятельности, его труды и их место сегодня. В статье подчеркивается важность руководства подрастающим поколением к духовной зрелости через труды Ибн Сины.

Ключевые слова: Абу Али ибн Сина, восточная философия, научное наследие, философская мысль, духовность, воспитание мысли, Китаб аш-Шифа, Аль-Канун фиттибб, воспитание молодежи.

Kirish so'z

XXI asr — bu ta'lim va texnologiyalar mislsiz sur'atlar bilan rivojlanayotgan, ilmiy yutuqlar hayotimizning har bir jabhasiga chuqur kirib kelayotgan davrdir. Albatta, har qanday yangilik va o'zgarish ortida fidokorona mehnat, teran tafakkur va sabrli izlanish yotadi. Bu esa, o'z navbatida, ilm-fan sohasida faoliyat olib borayotgan bilimli va zukko insonlarning mashaqqatli sa'y-harakatlari evaziga amalga oshadi. Ayni damda ro'y berayotgan texnologik taraqqiyot, raqamli dunyoning imkoniyatlari insoniyat oldiga yangi savollar, yangi ehtiyoj va mas'uliyatlar qo'ymoqda. Bunday murakkab va dinamik davrda texnologik imkoniyatlardan to'g'ri va oqilona foydalanish masalasi insonning nafaqat bilimi, balki ma'naviy kamoloti bilan ham uzviy bog'liqdir. Chunki inson ma'naviy jihatdan yetuk bo'lsa, u har qanday yangilik va o'zgarishdan foydali, ijobiy natijalar chiqaradi. Aks holda, ruhiy bo'shliq, yo'nalishsiz hayot tarzining natijasida, turli zararli g'oyalar va yot oqimlar girdobiga tushib qolish ehtimoli oshadi. Shu boisdan, bugungi globallashuv sharoitida har bir inson o'z ma'naviy olamini mustahkamlashi, tafakkur doirasini kengaytirishi va o'zligini anglashga intilishi zarur. Bunga esa, avvalo, buyuk ajdodlarimiz qoldirib ketgan bebaho ilmiy-falsafiy meros orqali erishish mumkin. Ayniqsa, Sharq allomalari tomonidan yaratilgan asarlar — faqat ilmiy bilim manbai bo'lib qolmay, balki ma'naviy tarbiyaning, tafakkur poklanishining, hayotiy qarashlar shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Bu borada Abu Ali ibn Sino kabi buyuk mutafakkirning asarlari alohida e'tiborga loyiqdir. Uning ilmiy-falsafiy qarashlari, inson va borliq haqidagi mulohazalari, ma'naviy yetuklikni targ'ib qiluvchi asarlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ibn Sino tafakkurining tahlili orqali biz nafaqat Sharq falsafasining teran ildizlarini anglaymiz, balki zamonaviy jamiyat uchun zarur bo'lgan ma'naviy mezonlarni ham belgilab olishimiz mumkin. Yuqorida, falsafiy qarash haqida tushunchalar keltirildi. Buning ma'nosini, avvalambor, bilish zarur. Bu Falsafa (yunoncha „donishlikni sevish“, va yunoncha σοφία „donolik“)– eng umumiy fan (nazariya), dunyoqarash shakllaridan, biri, bo'lib inson faoliyati sohalaridan biri. U kishi qanday yashashi, hayot kechirishi kerak (etika); qaysi narsalar mavjud va ularning tabiati qanday (metafizika); bilim nima (epistemologiya); hamda qanday fikrlash to'g'ri (mantiq) ekanligini hal qilishga urinadi. [1.] Falsafa bu o'zgacha bir fan hisoblanadi. Falsafaning shakllanishi va rivojlanishi tarixi, uni o'qitish tajribasi va hayotiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, falsafaning o'ziga nisbatan qo'yilgan savollarga javob berish unchalik oson emas. Falsafaning ma'nosi o'zgarmas, azaldan berilgan narsa emas, u doimiy shakllanishda, izlanadi, oydinlashadi, yaratiladi, yaratiladi. Qo'yilgan savollarga javob, mohiyatiga ko'ra, o'zini falsafalash jarayonida namoyon bo'ladi. Bu falsafa va faylasuflarning madaniyatdagi qiyofasi har doim juda xilma-xil va nihoyatda qarama-qarshi bo'lganligiga olib kelishi mumkin emas edi. [2.10;bet] Birgina fanga — ya'ni falsafaga — tarix davomida ko'plab ta'riflar berilgan. Bu ta'riflarning barchasi inson tafakkuri, borliq, ong, haqiqat va qadriyatlar mohiyatini tushunishga qaratilgan. Aynan ana shu murakkab, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan falsafa fanini o'rganib, uni rivojlantirish orqali hozirgi yoshlar uchun ma'naviy-falsafiy qarashlar asoslarini yaratgan buyuk allomalardan biri — Abu Ali ibn Sinodir. U Sharqning ilmiy tafakkuri, falsafiy qarashlari va tibbiyot sohasidagi ilg'or yondashuvlarini mujassamlashtirgan holda, nafaqat o'z zamonasiga, balki bugungi kunga ham beqiyos ilmiy-ma'naviy meros qoldirgan. Ibn Sino tafakkuri insonni o'zlikni anglashga, ma'naviy yetuklik sari intilishga undaydi. Ibn Sinoning o'tkir zehnlilik ekanligini bolaligidan ko'rish mumkin. Ibn Sinoning to'la ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali

ibn Sinodir. Abu Ali uning kunyasidir, oti Husayn, otasining oti Abdulloh edi. Odatda arablarda o'z nomini o'g'li ismi bilan atash rasm bo'lgan, buni ular kunya deb atashgan. Kishi ismini o'g'li nomi bilan ataganda, go'yo uning hurmati bajo kelgandek bo'lgan. Ular odatda o'zlarini katta o'g'il nomi bilan ataganlar. O'g'il ko'rmaganlar esa oldindan, kelajakda tug'iladi-tan o'g'ilga ism ham qo'yib olishgan va o'zlarini o'shanga nisbat berganlar. Shuning uchun Ibn Sino ham o'g'il ko'rgan-ko'rmaganli gidan qat'i nazar, o'ziga Abu Ali Alining otasi deb kunya qo'yib olgan va bu nom unga ism darajasiga o'tib qolgan. Ali esa otasining buvasining nomi. Manbalarda Ibn Sinoni ba'zan Shayx deb atashadi. Olimning bu unvoni ilm va falsafa bilae shug'ullanganini ko'rsatadi. «Shayx» aslida qariya, oqsoqol ma'nosida bo'lsa ham bu erda donishmand, alloma ma'nosiga to'g'ri keladi. Sharq yodgorliklarida ko'pincha uni «Shayx ar-Raysx deb atashadi. Bu esa donishmandlar sardori, allomalar boshlig'i ma'nosini bildiradi. Abu Ali hijriy hisobi bilan 370 yili safar oyida, milodiy 980 yili avgust oyida dunyoga kelgan. Afshana qishlog'i ham Ibn Sino tug'ilgan qishloq sifatida tanildi. Shu tufayli bu qishloq nomi tarixiy manbalarda ko'pincha Ibn Sino nomi bilan bog'lanib keladigan bo'ldi. Abu Ali besh yoshga to'lganida, ukasi Mahmud tug'iladi. Otasi o'g'illariga chuqurroq ta'lim berishni o'ylaydi. Lekin qishloqda ko'p narsa-dan xabardor muallim topish va topilganda ham ular ta'limi bilan kifoyalanish Abdullohni qoniqtirmas edi. Shuning uchun Abdulloh o'z oilasi bilan Afshana qishlog'idan Buxoroga ko'chib keladi. Abdulloh o'g'liga plo' o'g'liga ta'lim berishga berishga kirishadi. Odatda Sharqda savod o'qitishda, dastlab, arab alifbosi o'rgatilgan. Keyin esa ma'nosini tushunib etish etmasligidan qat'iy nazar, qur'on o'qitilib yodlatilgan. Chunki yodlash orqali arab tili iboralari, uning so'zlari esda saqlanib qolgan. Abdulloh o'g'liga savod o'rgatishni o'zi olib borgan bo'lishi ehtimoldan holi emas, chunki uning o'zi ham anchagina mulla odam bo'lgan. Abu Ali bo'lsa o'tkir zehni va xotirasi tufayli o'qigan narsasini tez o'zlashtirgan. Keyin Abu Ali qur'on yodlashga o'tgan. Odat-da qiroat bilan qur'on o'qishga ko'p yillar sarf bo'lgan. «Ibn Sino bo'lsa-chi, Qur'onni qiroat bilan yodlab o'zlashtirishga bir yil sarf qilgan. Bu esa undagi hali quloq eshitmagan ajoyib qobiliyatidan darak berar edi»[3;42-43-bet] Haqiqatdan, kicjik yoshidan bilimli va zukko bo'lgan. Uning yozgan assarlari o'ziga xos jihati bilan ajralib turadi. Ibn Sino 450 dan ortiq asar qoldirdi, shulardan 190 ga yaqini falsafa, mantiq, psixologiya, axloq shunoslik va ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangandir. U qator falsafiy-badiiy qissa va she'rlarning ham muallifidir. Bizgacha Ibn Sino asarlarining 100 tachasi etib kelgan. Bular orasida arab tilida yozilgan 5 tomli tibbiyot bo'yicha qomusiy asar «al-Qonun fittibb» («Tib ilmlari qonuni »), 18 tomdan iborat O'rta asr ilmining barcha muhim sohalarini xususan: mantiq, fizika, matematika, metafizikani to'liq o'z ichiga olgan «Kitob ash-Shifo» (Kitob an-najot), shuningdek 20 tomdan iborat «Kitob al-Insof» («In- sof kitobi»), «Kitob lison ar-arab» (Arab tili bo'- yicha kitob), shuningdek turli sohalarga bag'ishlangan fors tilida yozilgan qator asarlar, jumladan «Do-nishnoma» asarini ko'rsatib o'tish mumkin. Mazkur asarlarning bir qismi rus, o'zbek, tojik tillariga tarjima etilgandir.[4;59-bet] Buyuk mutafakkir, faylasuf, tibbiyot, falakiyot sohasining bilimdoni va tilshunos olim Abu Ali ibn Sino barcha davrlarda o'tgan olimu-ulamolar ichida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. U insoniyat tarixida yorqin chuqur iz qoldira olgan buyuk dahodir.[5] Haqiqatan ham, hozirgi rivojlanayotgan asrda Abu Ali Ibn Sinoning asarlarini o'rganish nafaqat foydali, balki zarur ehtiyojga aylangan. Texnologiya va ilm-fan kun sayin yuksalib borayotgan bir davrda, inson faqat tashqi taraqqiyot bilan emas, ichki – ya'ni ma'naviy yuksalish bilan ham uyg'un

rivojlanmog'i lozim. Ibn Sino asarlarida ilgari surilgan axloqiy tamoyillar, tafakkurga asoslangan hayot falsafasi, bilim va kamolotga intilish g'oyalari bugungi zamon kishisi uchun yo'lko'rsatkich bo'la oladi.

Zamonaviy yoshlar bu asarlar orqali ilmiy izlanish ruhi, teran tafakkur, ma'naviy barqarorlik kabi qadriyatlarni o'zlashtiradi. Ayniqsa, insoniyat yo'qotib borayotgan axloqiy mezonlar va qadriyatlar fonida Ibn Sino fikrlari bugun yana-da dolzarb tus olmoqda. Shuning uchun ham uning merosi – bu faqat tarixiy yodgorlik emas, balki kelajakni ongli va ma'naviy yondashuvlar asosida barpo etish uchun zarur bilim manbaidir.

Xulosa

Abu Ali Ibn Sino o'zining chuqur tafakkuri va boy ilmiy merosi bilan nafaqat Sharq, balki jahon ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan buyuk mutafakkirdir. Uning falsafiy qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, yosh avlodning ma'naviy tarbiyasida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, inson va borliq, axloq va tafakkur, bilim va ma'naviyat masalalariga oid qarashlari orqali zamonaviy jamiyatda yuksak axloqiy mezonlar shakllanishiga xizmat qiladi. Ibn Sino asarlarini o'rganish orqali yoshlar nafaqat ilm-fanga qiziqish uyg'otadi, balki o'zligini anglash, tafakkurini boyitish va ma'naviy yetuklik sari intilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shunday ekan, uning merosi har bir avlod uchun bebaho yo'lko'rsatkich bo'lib qolaveradi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Falsafa>
2. С.П.Кулик, Н.У. Тиханович "ИСТОРИЯ ФИЛОСОФИИ" итебск 2009; 10 страница
3. A. Irisov abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy merosi Uzbekiston SSR «fan» nashriyoti 1980; 42-43-b.
4. M. M. Xay rullaev :O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-FALSAFIY FIKRLAR TARIXIDAN LAVHALAR" TOSHKENT«UZBEKISTON»1999; 59-b.
5. <https://odam.uz/news/tabobat-ilmining-sultoni-abu-ali-ibn-sino-hayoti-va-faoliyati>